



**NKMK**

Navoiy Kon-Metallurgiya Kombinati

# «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJ

Kompaniya to'g'risida ma'lumot



**2025**

Navoiy kon-metallurgiya kombinati («NKMK» yoki «Kompaniya») ishlab chiqarish hajmi va tasdiqlangan zaxiralari bo'yicha **dunyoning yetakchi oltin qazib oluvchi kompaniyalari-dan biri** hisoblanadi. NKMK sohadagi umumiy xarajatlarning eng past ko'rsatkichlaridan biri bilan ajralib turadi. Kompaniyaning **vertikal integratsiyalashgan biznes modeli** geologiya-qidiruv ishlari, konlarni o'zlashtirish, gidrometallurgiya zavodlarining qayta ishlash quvvatlari, oltinni affinaj qilish, konchilik uskunalarini ishlab chiqarish va ta'mirlash-dan iboratdir. Kompaniya ishchi-xodimlarining umumiy soni – 47 000 nafardan ortiq.

NKMK resurs bazasini rivojlantirish va operatsion samaradorlikni oshirish uchun maqsadli investitsiyalarga yo'naltirilgan moliyaviy strategiyaga amal qiladi. Kompaniya barqaror pul oqimini yaratish va qarz yukini past darajada saqlab qolishni maqsad qilgan.

Kompaniyaning ishlab chiqarish aktivlari O'zbekiston hududida joylashgan. Mamlakat iqtisodiyotida 2024-yilda 6,5 foizlik o'sish kuzatildi. NKMK mamlakat iqtisodiyotining lokomotivi va eng yirik soliq to'lovchisi hisoblanadi.

| Asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar                                | 2023-yil | 2024-yil |
|----------------------------------------------------------------|----------|----------|
| • Sof tushum, mlrd. AQSh dollari                               | 5.7      | 7.4      |
| • Moslashtirilgan EBITDA, mlrd. AQSh dollari                   | 3.3      | 4.6      |
| • EBITDA marjasi, %                                            | 58%      | 62%      |
| • Naqd xarajatlar (TCC), AQSh dollari/untsiya                  | 745      | 828      |
| • «All-in sustaining cost» (AISC), AQSh dollari/untsiya        | 866      | 979      |
| • Operatsion faoliyatdan tushgan pul oqimi, mlrd. AQSh dollari | 2.04     | 2.7      |
| • Sof qarz/EBITDA                                              | 0.7x     | 0.5x     |

## NKMKning strategik maqsadlari:

- Ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi konlarni o'zlashtirish va raqamli transformatsiyani amalga oshirishga qaratilgan strategiya.
- Jahon bozorlariga chiqish orqali barqaror sof tushum va foyda o'sishini ta'minlash.
- Barqaror pul oqimlarini shakllantirish.
- Butun davr mobaynida kredit yukining umumiy darajasini 1x dan past darajada saqlash va likvidlikka nisbatan vazmin yondashuv.
- Innovatsion yechimlar va ilmiy ishlanmalarni yaratish uchun tarmoqlararo hamkorlik.

## Muhim faktlar:

2024-yilda oltin ishlab chiqarish hajmi **3.1 mln.** unsiyaga tashkil etdi. Jahonda oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar to'rttaligiga kiradi.

«Muruntov» koni dunyodagi eng yirik ochiq kon bo'lib, uning resurs bazasi **100 mln.** unsiyadan ortiq oltinga teng.

Umumiy foydali qazilma zaxiralari **146 mln.** unsiya. **12** ta yirik kon, **7** ta gidrometallurgiya zavodi va **2** ta uyumda eritmaga o'tkazish sexi mavjud.

2023-yilda ma'dandagi oltinning o'rtacha miqdori **1,1 g/t**; ajratib olish o'rtacha koeffitsiyenti – **84,5%**.

O'zbekistonning eng yirik kompaniyasi bo'lib, 2024-yilda Davlat budjetining qariyb **16,7** foizini ta'minladi.

Boy resurs bazasi va likvid aktivlar mavjudligi bilan mustahkamlangan moliyaviy barqarorlik.

Oltin qazib olish sohasi barqarorligicha qolmoqda – 2024-yilda oltin narxlari rekord darajaga yetib, **2 700 AQSh** dollari/untsiyadan oshdi. Oltin ishonchli aktiv va inflyatsiyadan himoya vositasi bo'lib qolishda davom etar ekan, Markaziy banklar tomonidan davom etayotgan xaridlar tufayli tarmoq uchun prognoz ijobiy bo'lib qolmoqda.

2024-yil iyul oyida «Fitch Ratings» xalqaro reyting agentligi tomonidan NKMKga «Barqaror» prognozi bilan **«BB-»** darajasidagi uzoq muddatli kredit reytingi berildi. Mustaqil kredit profili esa **«bb+»** (2024-yil oktabr oyi) darajasida baholandi.

2024-yil iyul oyida «S&P Global Ratings» xalqaro reyting agentligi tomonidan NKMKga «Barqaror» prognozi bilan **«BB-»** uzoq muddatli kredit reytingi berildi hamda kreditga layoqatlilik xususiyatlari **«bb+»** darajasida baholandi.

## ESG

- Eng ilg'or xalqaro amaliyotlar va BMTning barqaror rivojlanish bo'yicha rasmiy maqsadlariga muvofiq ESG sohasida keng ko'lamli dasturni amalga oshirish.
- 2025-yil yanvar oyida «Sustainable Fitch» xalqaro reyting agentligi tomonidan NKMKga umumiy bahosi 51 ball (100 balldan) bilan ilk bor korporativ ESG-reytingi '3' darajasida berildi.
- **Atrof-muhit muhofazasi:** suv iste'molini va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha ishlarni olib bormoqda.
- **Ijtimoiy mas'uliyat:** ishlab chiqarish xavfsizligini oshirish va xodimlarni o'qitishga doimiy investitsiyalar, hududlar aholisining turmush sifatini yaxshilash, O'zbekistonda eng yirik ayollarga ish beruvchilardan biri.
- **Korporativ boshqaruv:** ISO xalqaro standartlarini joriy etish, kompaniyaning korporativ boshqaruvini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish.

## O'zbekiston to'g'risida:

- **Barqaror suveren kredit reytingi yaqinda «Moody's» agentligi tomonidan «Ba3» darajasiga oshirildi.**
- 2024-yilda **YaIM** hajmi 115 mlrd. AQSh dollariga yetib, **6,5 foizlik** o'sish sur'atlari bilan mintaqada yetakchilik qilmoqda.
- Mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va liberallashtirishga yo'naltirilgan tarkibiy islohotlar.
- O'rtacha qarz darajasi va yuqori qarz barqarorligi.